Bugungi kunda talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish darajasi hamda ularning olgan bilim va ko'nikmalari ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hamda ta'lim sifatini baholashda nazorat va baholash jarayoni muhim rol o'ynaydi. Nazorat ta'lim jarayonining asosiy unsurlaridan biri bo'lib, hozirgi zamonaviy ta'limda baholashning mazmuni, shakllari va texnologiyalarini chuqur o'rganish ehtiyoji kuchayib bormoqda. Ayniqsa, chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitish jarayonida baholashning ahamiyati yanada ortib bormoqda, chunki zamonaviy ta'limda o'quvchining o'z fikrini yozma shaklda aniq, mantiqan izchil va grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash qobiliyati ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sanaladi. Ingliz tilida yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash metodikasi alohida o'rin tutadi. Yozma nutqni shakllantirish jarayoni nafaqat grammatik va leksik bilimlarni qo'llashni, balki fikrni mantiqan

rivojlantirish, tuzilmani saqlash, uslubiy moslikni ta'minlash kabi murakkab ko'nikmalarni ham talab etadi. Shu sababli, baholash metodikasini takomillashtirish yozma nutqni o'qitishdagi eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Baholash jarayoni o'quvchining yozma ifoda malakasini ob'yektiv o'lchash, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, o'qituvchiga individual yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, ingliz tili yozuv malakalarini baholashda formativ (rivojlantiruvchi) va summativ (yakuniy) baholash turlari uyg'un qo'llaniladi. Formativ baholash jarayonida o'quvchining yozish jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilinadi, unga o'z ishini yaxshilash uchun tavsiyalar beriladi, summativ baholash esa o'quvchining yozma ishini yakuniy natija sifatida baholashga qaratilgan bo'lib, odatda yakuniy nazorat, imtihon yoki sertifikatlash bosqichida qo'llaniladi. Ingliz tilida yozuv malakalarini baholashda xalqaro mezonlarga asoslangan yondashuvlar, masalan, Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) darajalari keng qo'llanilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ingliz tilida yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash metodikasi o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki u faqat natijani o'lchash emas, balki o'rganish jarayonini samarali boshqarish vositasi sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy til o'qitish nazariyasida baholash "o'rganish uchun baholash" konsepsiyasi asosida talqin qilinadi, ya'ni baholash o'quvchining bilimini sinash emas, balki uni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Brown (2004) tomonidan ilgari surilgan beshta asosiy tamoyil – practicality (amaliylik), reliability (ishonchlilik), validity (haqiqiylik), authenticity (autentiklik) va washback (ta'sir samaradorligi) – yozuvni baholashda markaziy o'rin egallaydi. Ayniqsa, washback tamoyili, ya'ni baholashning ta'lim jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta'siri, o'quvchilarning yozma nutqni rivojlantirish jarayonida motivatsiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Weigle (2002) yozuvni baholashni formativ va summativ turlarga ajratgan holda, formativ baholashning o'quvchining yozish malakasini bosqichma-bosqich yaxshilashdagi afzalliklarini ko'rsatadi. Bu yondashuv doimiy qayta aloqa (feedback) orqali o'quvchining o'z xatolarini aniqlash, tahlil qilish va tuzatish imkonini beradi, natijada u o'z yozuv uslubini ongli ravishda takomillashtiradi.

Hyland va Hyland (2006) fikriga ko'ra, samarali fikr-mulohaza o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi dialogik muloqot asosida bo'lishi zarur, chunki bunday yondashuv o'quvchini o'z ishini qayta ko'rib chiqish va tahrir qilishga undaydi, bu esa yozuv sifatining sezilarli oshishiga olib keladi.

Biggs (1996) tomonidan ilgari surilgan "konstruktiv muvofiqlashtirish" nazariyasiga ko'ra, baholash o'quv maqsadlari va ta'lim faoliyatlari bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilishi kerak, bu esa yozma topshiriqlarni amaliy kommunikativ vaziyatlarga moslashtirishni taqozo etadi.

Shuningdek, Black va Wiliam (1998) formativ baholashning yozuvni o'rgatishda ijobiy natija berishini isbotlab, o'quvchini baholash jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, portfel, o'z-o'zini baholash va tengdosh baholash kabi shakllar o'quvchilarda refleksiya, mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantiradi.

Bachman va Palmer (1996) esa baholashning autentikligini alohida e'tirof etib, yozuv topshiriqlari real kommunikativ kontekstlarga yaqin bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi, chunki bu o'quvchilarning tilni haqiqiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuv yozma nutqni baholashda grammatik to'g'rilikdan tashqari mazmun, mantiq, uslubiy izchillik va kommunikativ maqsadga yo'naltirilganlikni ham inobatga olishni talab etadi. Yozuvni baholashda rubrikalardan foydalanish aniq mezonlar asosida baholash imkonini berib, adolat va shaffoflikni ta'minlaydi.

Shuningdek, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standartlaridagi yozma ishlab chiqish deskriptorlari o'quvchining yozuv kompetensiyasini xalqaro darajada o'lchash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ingliz tilida yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash metodikasining samaradorligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, u nazariy tahlil, tajribaviy kuzatuv va amaliy sinov asosida olib borildi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogik yondashuvlar – kommunikativ, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning yozma nutqni egallash jarayonida baholashning nafaqat nazorat vositasi, balki o'quv faoliyatini rivojlantiruvchi omil sifatida qo'llanishini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida tizimlilik, izchillik, ilmiylik, diagnostik yondashuv va refleksiv tahlil tamoyillariga tayangan holda ish olib borildi.



Tizimlilik tamoyili yozuv malakasini shakllantirish va baholashni yagona didaktik tizim sifatida ko'rib chiqishga xizmat qilgan bo'lsa, izchillik tamoyili baholash mezonlari, bosqichlari va metodlarini o'quv jarayoni bilan uzviy bog'liq holda qo'llashni ta'minladi. Diagnostik yondashuv o'quvchilarning yozma ishlarini tahlil qilib, ularning rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotda nazariy tahlil, empirik metodlar, tajriba-sinov ishlari va statistik tahlil qo'llanildi.

Nazariy tahlil jarayonida chet tili o'qitish metodikasi, baholash nazariyasi va yozma nutqni o'rganish bo'yicha ilmiy manbalar hamda xalqaro tajribalar (CEFR, IELTS, TOEFL) tahlil qilindi. Empirik metodlar orqali kuzatuv, suhbat va test sinovlari o'tkazilib, o'quvchilarning yozuv malakalari darajasi hamda baholash jarayonining amaliyoti o'rganildi.

Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda an'anaviy baholash usullari asosida yozma ishlar tahlil qilindi, ikkinchi bosqichda esa formatif va raqamli baholash usullari joriy etilib, ularning samaradorligi solishtirildi. Statistik tahlil yordamida olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan qayta ishlanib, ularning o'zaro bog'liqligi va farqlari aniqlashtirildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida ingliz tili fanidan ta'lim olayotgan talabalar, predmeti esa yozma nutqni baholash metodikasining ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilida yozuv malakalarini takomillashtirishda samarali baholash metodikasini ishlab chiqish va uning o'quv jarayonidagi amaliy ahamiyatini asoslab berishdir.

Ish jarayonida B. Bloomning taksonomiyasi, D. Brown va L. Bachman tomonidan ishlab chiqilgan tilni baholash mezonlari, shuningdek, Byram (1997) va CEFR doirasidagi kompetensiyaviy yondashuvlardan nazariy asos sifatida foydalanildi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning yozuv malakalarini baholashda faqat natijani emas, balki o'quv jarayonining o'zini ham tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot yakunida yozuv malakasini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks baholash modeli ishlab chiqildi. Mazkur model formatif baholash, refleksiya, o'zaro baholash (peer assessment) va o'zini baholash (self-assessment) elementlarini o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchilarda mas'uliyat, tahliliy fikrlash va o'z faoliyatini baholash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi ingliz tili yozuv malakalarini takomillashtirishda baholashning ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish, amaliy tajribalar orqali ularning samaradorligini aniqlash va natijalar asosida takliflar ishlab chiqishga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Baholashning ikki asosiy yo'nalishi mavjud bo'lib, ular o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining har ikki tomonini – talabalar individual rivojlanishini hamda ta'lim tizimi samaradorligini qamrab oladi. Birinchi yo'nalish, ya'ni talabani o'zlashtirish darajasini o'lchash ko'rsatkichi sifatida baholash, o'quvchi yoki talabaning egalagan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashga, ularning rivojlanish dinamikasini kuzatishga qaratilgan. Bu yondashuvda baho nafaqat natijani bildiradi, balki o'quvchi uchun o'z o'rganish jarayonini tahlil qilish, kamchiliklarini anglash va keyingi bosqichlarda o'z ustida ishlash imkonini beruvchi sifatli ko'rsatkich vazifasini bajaradi. Ikkinchi yo'nalish – baholashni ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash indikatori sifatida qo'llashdir. Bu yondashuv orqali olingan natijalar butun o'quv jarayonining samaradorligini baholashga, o'qitishdagi kamchiliklarni aniqlashga va ularni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu tarzda baholash natijalari asosida ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi metodlarni joriy etish, mavjud o'quv dasturlarini optimallashtirish imkoniyati yaratiladi.

Zamonaviy ta'limda bu ikki yo'nalish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'un qo'llanilishi ta'lim sifatini oshiradi, shuningdek, talabalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Baholash texnologiyalarining rivojlanishi natijasida formativ (jarayonli) va summativ (yakuniy) baholash, kompetensiyaga asoslangan yondashuv hamda raqamli baholash vositalarini birgalikda qo'llash orqali adolatli, shaffof va samarali ta'lim tizimi shakllanmoqda. Formativ baholash o'quvchining o'z o'rganish faoliyatiga jalb etilishini kuchaytirs, summativ baholash natijani tahlil qilish va keyingi bosqichni rejalashtirish imkonini beradi. Raqamli baholash texnologiyalari esa natijalarni tezkor, obyektiv va tahliliy ko'rinishda qayd etish imkonini berib, o'qituvchi faoliyatini yengillashtiradi. Baholash jarayonida turli usullarni – test, yozma ish, portfel, og'zaki javob, loyiha ishlari, o'zaro va o'z-o'zini baholash kabi metodlarni birlashtirish talabalar qobiliyatlarini to'liq baholash imkonini yaratadi. O'qituvchilar uchun esa zamonaviy baholash metodologiyalarini o'rganish va amaliyotga joriy etish o'zining pedagogik mahoratini oshirish, shuningdek, dars jarayonini yanada interaktiv va natijador qilishda katta ahamiyatga ega. Baholash natijalarini tahlil qilish asosida ta'lim jarayonini talabalar ehtiyojlariga moslashtirish, o'qitish usullarini takomillashtirish, o'quv dasturlarini optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, baholash tizimi ta'lim sifati monitoringining ishonchli mexanizmi sifatida xizmat qilib, o'qituvchilar uchun pedagogik tahlil vositasi, talabalar uchun esa rivojlanish yo'nalishini ko'rsatuvchi refleksiya vositasiga aylanadi. Ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan B. Karima, K. Roberts, A. Hughes, Ch. Coombe, K. Muradkasimova, M. Yakovlevich va T. Mixaylovnalarning ishlari alohida e'tirofga loyiq.



Ayniqsa, K. Muradkasimova ta'limda baholash tushunchalarini tahlil qilgan holda, "assessment", "evaluation" va "testing" terminlari o'rtasidagi farqni aniq ko'rsatib bergan. Unga ko'ra, assessment – bu o'quvchi yoki talabaning o'rganish jarayonini doimiy kuzatish va rivojlantirish vositasi bo'lsa, evaluation – ta'lim tizimining umumiy samaradorligini baholash jarayonidir, testing esa baholashning aniq o'lchovli vositasi sifatida tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, bizning tadqiqotimizda baholashning asosiy maqsadi o'quvchini rivojlantirish, uning yozma va og'zaki kompetensiyasini yuksaltirish hamda ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan. Shu bilan birga, baholash natijalarini ilmiy asosda tahlil qilish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning individuallik jihatlari hisobga olish va zamonaviy ta'limni innovatsion rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval: "Assessment", "Evaluation" hamda "Testing" tushunchalarining qiyosiy tahlili

	K.Sh.Muradkasimova
Assessment	til o'zlashtirishda talabaning erishgan yutuqlarini turli usullar orqali nazorat qilish
Evaluation	talabaning yutuqlari va butun ta'lim jarayonini baholash
Testing	yo'zma savol-javob ko'rinishidagi an'anaviy nazorat turi



	Bizning ta'rifimizga ko'ra
Assessment	o'quv jarayonida kutilayotgan natijalarga erishishni o'lchash va talabalarning yutuqlarini tasniflash yoki baholash
Evaluation	talabalarning ta'lim ehtiyojlari mezonlaridan kelib chiqib oldindan belgilangan, kutilayotgan natijalarga mos kelishini aniqlash uchun ishlatiladigan usul
Testing	Talaba bilimi, qobiliyati va malakasini o'lchash usuli

Turli ta'riflarni tahlil qilganda, nazorat (evaluation) jarayoni tamoyillar va dalillarga asoslanib qarorlar qabul qilish jarayoni ekanligini ko'rish mumkin. L. Bachman nazoratni qaror qabul qilish uchun zarur ma'lumotlarni tizimli yig'ish jarayoni sifatida ta'riflaydi. Ayrim tadqiqotchilar zamonaviy ta'lim amaliyotida nazoratni ko'pincha "test" yoki "imtihon" bilan bog'lashadi. J. Shillovning fikricha, til testlari o'lchov vositasi sifatida xizmat qiladi va o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Shu bois, baholash ta'lim sifati va natijalarini aniqlashda muhim o'lchov vositasi deb qaraladi. Baholash (assessment) esa faqat talabalar bilimini o'lchash bilan cheklanmay, balki ularning ta'lim olish jarayoniga, motivatsiyasiga va o'z ustida ishlash qobiliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi davrda baholash an'anaviy imtihon shaklidan chiqib, ta'lim natijalariga erishishning muhim vositasiga aylangan. T. Ekhaot baholashning sifatli ta'lim berishdagi hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi, C. Palomba va T. Banta esa baholashni "o'quvchilarning o'rganish jarayoni va rivojlanishini takomillashtirish maqsadida ta'lim dasturlari bo'yicha ma'lumotlarni tizimli yig'ish, tahlil qilish va ulardan foydalanish" deb ta'riflaydi. Nazariy tahlillarga asoslanib, "assessment" ta'lim jarayonini kuzatish, rivojlanish dinamikasini baholash va yo'naltirishni ifodalasa, "evaluation" esa ta'lim natijalarini tahlil qilish, tizim samaradorligini aniqlash va strategik qarorlar qabul qilishni anglatadi. Shunday qilib, baholashning asosiy maqsadlari uch yo'nalishda tasniflanadi: birinchisi, joriy baholash (assessment for learning) bo'lib, bu shakllantiruvchi baholash turi o'qituvchi va talabalarga o'quv jarayonida darhol teskari aloqa olish, bilim va ko'nikmalarni yaxshilash imkonini beradi. Ikkinchisi, yakuniy baholash (assessment of learning) bo'lib, bu umumlashtiruvchi baholash turi o'qish jarayonining yakunida natijalarni tahlil qiladi va belgilangan standartlarga muvofiq baho beradi; bu turdagi baholash o'quv dasturi samaradorligini isbotlovchi asosiy dalillarni taqdim etadi.

Uchinchi yo'nalish esa mustaqil baholash (assessment as learning) bo'lib, u talabaning o'zini o'zi baholashi bilan bog'liq bo'lib, metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va o'z-o'zini tahlil qilish madaniyatini rivojlantiradi. Zamonaviy baholash usullari ta'lim jarayonini samarali boshqarish, talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning baholash jarayonida faol ishtirok etishi ularga o'z o'rganish yo'lini anglash, nazorat qilish va rejalashtirish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu sababli, zamonaviy baholash nafaqat o'lchov vositasi, balki o'rganishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ta'lim tizimida markaziy o'rinni egallaydi.


Baholash uchun

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- natijaga erishganligini tasdiqlash;
- talabalarning qiziqishlarini aniqlash;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash;

Nimani baholash

- nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar

1-rasm: “Baholashning maqsadi va obyekti (nimalarni va nima uchun baholash)”

Baholash metodikasi ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u baholash ob'ektlarini – ya'ni o'quv faoliyatini, natijalarni, mexanizmlarni yoki o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini tahlil qilish, tekshirish, kuzatish va o'rganish jarayonini ifodalaydi. Baholashda usul, tur, shakl, test va baho kabi tushunchalarni aniq belgilash nihoyatda muhim, chunki aynan shu elementlar ta'lim sifatining asosiy o'lchov mezonlarini tashkil etadi. Tekshiruv usullari orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari qanday nazorat qilinishi, ularning o'zlashtirish darajasi va rivojlanish dinamikasi aniqlanadi. Xususan, talabalarning ingliz tilida akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda integrativ baholash usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega, chunki bunday yondashuv yozma faoliyatni grammatika, mazmun, uslub, mantiq va kommunikativ maqsad bilan uyg'un holda baholash imkonini beradi.

Baholash chet tilini o'rganuvchi talabalar uchun nafaqat tayanish nuqtasi, balki ularning asosiy til kompetensiyalarini aniqlovchi va rivojlantiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. O'zbekistonda uzoq yillar davomida baholash asosan tilning alohida jihatlariga – grammatik to'g'rilik va lingvistik aniqlikka e'tibor qaratgan bo'lsa, hozirgi kunda integrativ yondashuv keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvning maqsadi talabalarning chet tilini kompleks ravishda o'zlashtirishini ta'minlash, ya'ni tilni kommunikativ, madaniy va kognitiv jihatdan bir butun tizim sifatida o'rganishga yo'naltirishdir.

A. Hughes o'z tadqiqotlarida yozma nutqni baholash testlari faqat yozuv qobiliyatini o'lchashi, boshqa til ko'nikmalari bilan aralashmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yozuvni baholash testlari o'quvchining matn yaratishdagi mustaqilligi, mantiqiy izchilligi, grammatik to'g'riligi va stilistik mosligini aniqlashga qaratilishi zarur.

Shuningdek, u baholash mezonlarini to'g'ri aniqlash yozma testlarni ishlab chiqishda asosiy shartlardan biri ekanini alohida ta'kidlaydi. Talabalarning yozma ishlarini ilmiy, grammatik, mantiqiy va uslubiy jihatdan baholash uchun aniq mezonlar va standartlar ishlab chiqilishi, baholovchilar tomonidan esa ularning yagona talqin asosida qo'llanishi muhimdir. G. Brown baholash jarayonida quyidagi besh asosiy tamoyilga amal qilishni tavsiya etadi:

birinchidan, aniqlik – baholash natijalari o'quvchining haqiqiy bilim va ko'nikmalarini aniq aks ettirishi kerak;

ikkinchidan, obyektivlik – baholash jarayoni xolislik asosida olib borilishi, shaxsiy sub'ektiv fikrlardan holi bo'lishi lozim;

uchinchidan, moslashuvchanlik – baholash usullari o'quvchilarning individual ehtiyojlari va o'rganish uslublariga moslashtirilishi kerak.

Ushbu tamoyillarni amalda qo'llash baholash jarayonining adolatli, samarali va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Natijada baholash metodikasi o'qituvchiga o'quv jarayonining real holatini aniqlash, talabalarning kuchli va zaif tomonlarini belgilash hamda ta'limni shunga mos tarzda yo'naltirish imkonini beradi, talabalarga esa o'z yozma ko'nikmalarini tahlil qilish, o'zini baholash va rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.



2-jadval: **Browning bilimlarni nazorat qilishda 5 ta baholash tamoyili tasnifi**

Amaliylik (practicality)	Ishonchlilik (reliability)	Yaroqlilik (validity)	Real vaziyatga mos (authenticity)	Qayta aloqa (washback)
Amaliy testni topshirish xarajatlari katta bo'lmaydi, sarflanadigan vaqt ko'p ham bo'lmaydi, oz ham bo'lmaydi, nazorat qiluvchilar testni osongina boshqara oladilar, baholash va qaror qabul qilish ko'p vaqt talab etmaydi	Ishonchli test o'zgarmas va ishonarli bo'ladi. Agar test talabalarga ikki xil muqobilida taqdim etilsa ham, natijalar o'xshash bo'lishi kerak. Bu tamoyil o'z navbatida, 1. Talabalar ishonchliligi, 2. Baholovchi ishonchliligi, 3. Nazoratchining ishonchliligi kabi turlarga ajraladi	Eng muhim tamoyillardan biri bo'lib, unda nima baholanishi kerakligi anglashinadi. Yozma nazorat ishi yaroqli bo'lishi uchun sinfda/auditoriyada o'qitilgan mavzularga asoslangan holda ishlab chiqiladi	Bunday nazorat, talabalar o'zlarining kelajakda yangi ish joylaridagi muammolarni hal qila olishlari maqsadiga yo'naltirilgan bo'lib, shunga mos real vaziyatni aks ettiradi	Bu tamoyil fikr-mulohaza (qayta aloqa) sifatida ishlatiladi, u ijobiy yoki salbiy ko'rinishlarga ega

Baholash metodikasini tahlil qilishda umumiy baholash mezonlaridan foydalanish konstruktiv muvofiq-lashtirish tamoyiliga mos kelishi juda muhimdir, chunki bu tamoyil o'quv maqsadlari, ularga erishish usullari va baholash mezonlari o'rtasidagi izchillikni ta'minlaydi. Shu sababli, talabalarni chet tilida yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda baholash vositalarini ehtiyotkorlik bilan tanlash, ayniqsa yuqorida sanab o'tilgan besh tamoyilni o'z ichiga olgan vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi.

XULOSA

Ingliz tilida yozuv malakalarini rivojlantirish jarayonida baholash metodikasi muhim o'rin tutadi. To'g'ri tanlangan baholash yondashuvi o'quvchilarning yozma nutqini nafaqat grammatik jihatdan, balki mazmun, uslub va kommunikativ maqsad nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, baholash jarayoni o'quvchilarning yozuvdagi xatolarini aniqlash, ularni tuzatish strategiyalarini shakllantirish hamda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Yozuvni baholashning analitik, kommunikativ va formatif turlari o'qituvchiga o'quvchi yutuqlarini bosqichma-bosqich tahlil qilish, individual yondashuvni ta'minlash va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, zamonaviy baholash metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ingliz tili ta'limining sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Xulosa qilib aytganda, ingliz tili yozuv malakalarini takomillashtirishda samarali baholash tizimi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro teskari aloqa o'rnatadi, ta'lim jarayonini shaffof va natijador qiladi. Kelgusida baholash mezonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamli platformalardan foydalanish va ijodiy yozuv kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Banta, T. W., & Palomba, C. A. (2015). Assessment essentials: Planning, implementing, and improving assessment in higher education (2nd ed.). New Jersey: Jossey-Bass. – 368 p.
2. Bachman, L. F. (1990). Fundamental considerations in language testing. Oxford: Oxford University Press. – 420 p.
3. Brown, D. H., & Abeywickrama, T. (2010). Language assessment: Principles and classroom practices (2nd ed.). New York: Pearson Longman. – 386 p.
4. Brown, G. T. (2004). Teachers' conceptions of assessment: Implications for policy and professional development. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 11(3), 301–318. <https://doi.org/10.1080/0969594042000304609>
5. Eckhout, T., Davis, S., Mickelson, K., & Goodburn, A. (2005). A method for providing assessment training to in-service and pre-service teachers. In K. D. Gutiérrez (Ed.), Annual Meeting of the Southwestern Educational Research Association in New Orleans (pp. 121–132). New York: Arnolds.
6. Hughes, A. (2002). Testing for language teachers (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. – 251 p. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511732980>
7. Johnson, L. (2020). Security controls evaluation, testing, and assessment handbook (2nd ed.). USA: Academic Press. – pp. 73–83.
8. Jalolov, J. J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi. – 80 b.



9. Маткаримова, А. И., & Тоштемиров, Э. Н. (2017). Assessment in teaching a foreign language. Молодой ученый, 5(139), 432–434.
10. Muradkasimova, K. (2019). Ingliz tilini o'qitishda talabalar ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari (PhD dissertatsiyasi). Toshkent. – 158 b.
11. To'xtaxo'jayeva, M. X., Ashirboyev, S., Hasanboyev, J., Nishonova, S., Madiyarova, S., Qoldibekova, A., Usmonboyeva, M., & Nishonova, N. (2007). Pedagogika nazariyasi va tarixi: Pedagogika nazariyasi (2-qism). Toshkent: Universitet nashriyoti. – 256 s.
12. Testbook. (2022). Competency-based language assessment aims at... Retrieved from <https://testbook.com/question-answer/competency-based-language-assessment-aims-at> (accessed 12/09/2022).
13. Shillaw, J. (2017). Language testing @ 55: A report of 55 years of foreign language assessment. Academia: Literature and Language, 101, 1–14. <https://doi.org/10.15119/00001000>
14. Shepard, L. A. (2000). The role of assessment in a learning culture. Educational Researcher, 29(7), 4–14. <https://doi.org/10.3102/0013189X029007004>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.